Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: xolboyeva@bk.ru; Orcid: 0009-0006-7840-4429)

HEAD/BOSH NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN PROVERBIAL FRAZEMALARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi tananing tepa qismi asosida shakllangan proverbial frazemalarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda iboralarning semantik, strukturaviy va madaniy o‘xshashliklari hamda farqlari ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *proverbial frazemalar, head, bosh, lingvokulturologiya, chog‘ishtirma tahlil.*

Холбоева Ирода Шухрат кизи (независимый исследователь Термезского университета экономики и сервиса; e-mail: xolboyeva@bk.ru; Orcid: 0009-0006-7840-4429)

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ HEAD/ГОЛОВА

Аннотация. *В статье анализируются лингвистические и культурные особенности пословичных фраз, основанных на верхней части тела, в английском и узбекском языках. В исследовании подчеркиваются семантические, структурные и культурные сходства и различия между выражениями.*

Ключевые слова: *пословицы, голова, лингвокультурология, сравнительный анализ.*

Holboeva Iroda Shuhrat kizi (Independent researcher at Termez University of Economics and Service; E-mail: xolboyeva@bk.ru; Orcid: 0009-0006-7840-4429)

COMPARATIVE STUDY OF PROVERBS FORMED BASED ON THE NOUNS HEAD/BOSH

Annotation. *This article analyzes the linguistic and cultural characteristics of proverbial phrases based on the upper body in English and Uzbek. The study highlights the semantic, structural, and cultural similarities and differences of the phrases.*

Keywords: *proverbial phrases, head, linguistic and cultural studies, comparative analysis.*

Kirish (Introduction). Jahon tilshunosligida frazeologizm tushunchasini keng va tor mazmunda tushunish tendensiyasining mavjudligi sir emas. Qator lingvistlar mazkur til birligini keng ma’noda tushunib, uning obyektini ko‘plab birliklar qamrab olishini bot-bot ta’kidlashadi. Har-bir sohada qarama-qarshiliklar bo‘lgani kabi, ushbu til birliklari haqida ham olimlarning fikr-mulohazalari turlicha.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tadqiqotchi N.N.Amosova [5], Y.D.Pinxasov [11], A.M.Babkin [6], B.Jo‘rayevalar [1] frazeologiyaning obyektini tor doirada tushunib o‘z asarlarida usbu birliklarni o‘z tabiati bilan so‘z birikmasidir, degan dalilni keltiradilar, o‘z navbatida, maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan chetda qoldiradilar. V.V.Vinogradov, A.V.Kunin [8] kabi olimlar frazeologiyani keng ma’noda tushunib, maqol va matal kabi birliklarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritadilar.

Ingliz tadqiqotchisi J.Rey proverbial frazeologizmni shunday izohlaydi: “Proverbial phrase is usually defined, an instructive sentence, or common and pithy saying, in which more is generally designed than expressed, famous for its peculiarity” [2;42 p.]. Frazeologik fondning ma’lum bir qismini proverbial frazeologizmlar tashkil etadi va ular og‘zaki hamda yozma nutqda qo‘llaniladi. Biz tadqiqotimizda ko‘chma ma’noda ishlatiladigan maqollarni proverbial frazeologizmlar deb nomladik [10;22-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Head/bosh nomlari asosida shakllangan proverbial frazemalarning chog‘ishtirma tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida bo‘lgan hozirgi paytda somatizmlar ishtirokidagi lisoniy birliklarning vazifaviy-semantik xususiyatlarini o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Til lug‘aviy zaxirasining qadimdan shakllangan qatlami tilshunoslarni ko‘pdan buyon qiziqtirib keladi. Zero, inson gavdasi a’zolari olamni bilish, uni o‘zlashtirish va atrofdagi muhitga mo‘ljal olishning asosiy vositasidir. Tana a’zolarining moddiy olamdagi narsa-hodisalar bilan o‘xshash jihatlariga tayangan shaxs ushbu olamni tavsiflaydi va tasniflaydi.

Umuman, somatik lug‘aviy birliklarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi barcha tillar uchun bir xilda xosdir. Z.A.Bogusning fikricha, inson tanasining tashqi qismida joylashgan a’zolarini atovchi somatizmlarning derevatsion imkoniyatlari katta va bunday ma’no ko‘chimlarida narsa-hodisalarning ma’lum belgilari o‘rtasidagi o‘xshashlik asos rolini o‘taydi [7;25-b.].

Jumladan, "bosh/head" so'zlari quyidagi assotsiativ bog'lanishlar orqali yangi tushunchalarni ifodalaydi:

a) miyaning faoliyati, intellektual qobiliyat bilan qiyoslanadi: ingliz tilida: *cabbage head (befahm), pumpkin-head* (ahmoq); o'zbek tilida: *qovoq kalla, xumkalla;*

b) biror narsaning boshlang'ich nuqtasi, sirti, old qismi:

ingliz tilida: *headspring (buloqning boshi); head-line (sarlavha); headwind (qarshidan esayotgan shamol); head-sales (oldingi yelkan);* o'zbek tilida: *bosh maqola; boshlovchi; buloqning boshi.*

Olam lisoniy manzarasining muhim qismini tashkil qiladigan somatizmlarning barcha tillar uchun umumiy xususiyatga va yuqori darajadagi onomasiologik maqomga egaligi ularning voqelikning turli qismlariga oid narsa-hodisalarni tavsiflash va nomlash imkoniyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Buning sababi inson gavda tuzilishining barcha mintaqa, jug'rofiy hududlar, madaniy muhitlarda yashovchilar uchun bir xil ekanligi bilan bog'liq.

Olib borilgan tahlil natijalari ikkala lisoniy madaniyatda ham *bosh/head, yurak/heart* kabi somatizmlarning maqollar tarkibida qo'llanish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ushbu somatizmlar ishtirokidagi maqollar turli xil mazmunni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Maqol tuzilmalari shakllanishida eng faol somatizm *"bosh"/"head"* somatizmidir. Ushbu turdagi maqollarning ifoda maydoni keng, unda jismoniy va emotsional holatlar bir xilda voqelanadi. Shuningdek, mazkur tuzilmalarning metonimik qo'llanilishi tez-tez kuzatiladi va bunday paytlarda insonning intellektual qobiliyati, uning aql-zakovatiga ishora mavjud bo'ladi.

Masalan: o'zbek tilida:

Erga bersang oshingni, Erlar silar boshingni.

Itga ***bersang oshingni****, Itlar g'ajir* ***boshingni.***

Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

Ilmsiz bosh qashir, xushomadgo'y gap tashir.

Tavakkalning tubi tosh, ursang boshing yorilar.

Ingliz tilida:

A still tongue makes a wise head.

Two heads are better than one.

Too much knowledge makes the head bald.

You must not expect old heads upon young shoulders.

Bundan tashqari, har ikkala chog'ishtirilayotgan lisoniy madaniyatlarda *"bosh/head"* somatizmi insonlarning jamoa, alohida guruhlarni boshqarish imkoniyatlariga ham ishora qiladi:

Ba'zan ushbu somatizmning maqollar tarkibida biron narsa-hodisaning boshlanishi, old qismi mazmunida faollashuvi ham kuzatiladi:

Devonadan oy boshi so'rama.

Temirning bir boshi issiq, bir boshi sovuq.

Bo'ladigan ishning boshi to'g'ri.

Yalqovning maqtangani ish boshiga borguncha.

Keltirilgan paremalar tavsifida ma'lum bo'ladiki, somatizmlar ishtirokidagi proverbial frazemalarga xuddi boshqa turg'un birikmalar kabi, ko'pincha, obrazli ifoda xos bo'lib, ularda bir paytning o'zida denotat va ko'chma ma'nolar mujassamlashadi. Haqiqatan ham, parema matnlarida "denotatning o'ziga xos xususiyatlarini obrazli ifodalashga" yo'naltirilgan ikkilamchi nomlash harakati namoyon bo'ladi [9;96-p.].

O'zbek tilida "yurak" va uning sinonimlari "dil", "qalb", "ko'ngil" kabilar ishtirokida hosil bo'lgan maqollar keng qo'llaniladi. Mazkur maqollar metaforik mazmun olgan holda, insonlarning kechinmalari, hissiyotlari hamda boshqa kayfiyat bilan bog'liq sifatlarni voqelantiradi.

Qiyoslang:

Er yuragi pok bo'lsa, yov hiylasi xok bo'lar.

Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas.

Yaxshi so'z – yurak yog'i, yomon so'z – yurak dog'i.

Qozon qorasi ketar, yurak qorasi ketmas [3;11-b.].

Ingliz lisoniy madaniyatida *"heart"* somatizmi ishtirokidagi maqollar botirlik, kuchlilik, qahramonlik xislatlarini tavsiflash bilan birgalikda, insonning "ichki dunyosi" haqida ham ma'lumot berishi mumkin. Shunindek, paremalar u yoki bu lisoniy madaniyat vakillarining kundalik faoliyat ko'lamini qamrab oladi va shu yo'sinda olam oddiy manzarasini aks ettiradi. Natijada proverbial frazemalar turli mavzuviy guruhlarga (masalan, *do'stlik, muhabbat, mehnat, yalqovlik, baxt, baxtsizlik* va hokazo) bo'linadi. Paremalarning

u yoki bu mavzuga taalluqli bo‘lishi ushbu sohaning millat, jamoa hayoti uchun muhimligidan darak beradi va ular vositasida voqea-hodisalar, xatti-harakatlarni baholash imkoniyati hosil bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Keltirilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, paremalarning ma’nosini aniq va guruhlarga ajratishda konseptual tahlil amallariga tayanish lozim. Somatizmlar ishtirokida yasalgan o‘zbek va ingliz proverbial frzaeologizmlari voqelantiradigan ma’nolar va shu asosda ularni ma’lum guruhlarga tasniflash masalasi butun tafsiloti bilan ishning navbatdagi qismida ko‘rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari. Monografiya, Toshkent, «Akademnashr», 2019, 221 bet.

(2). John Ray. A complete collection of English proverbs published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013, 319 p.

(3). O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. Toshkent, «Sharq», 2005, 253 bet.

(4). The Oxford Dictionary of Proverbs and Jennifer Speake, John Simpson Fifth Edition, Oxford University Press, 2007, 625 p.

(5). Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. Ленинград, издательство Ленинградского университета, 1963, 227 с.

(6). Бабкин А.М. Русская фразеология, её развитие и источники. Ленинград, “Наука”, 1970, 264 с.

(7). Богус З.А. Соматизмы в разносистемных языках: семантико-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты: на материале русского, адыгейского и английского языков. Автореф. дисс. … канд. филол. наук, 2006, 25 с.

(8). Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. Москва, издательский центр «Феникс», 1972, 206 бет.

(9). Волоцкая З.М. Способы номинации в загадках (к вопросу о произвольности языкового знака). Структура текста. М., “Наука”, 1981, с. 96.

(10). Кюрегян А.Л. Структурно-семантические и прагматические характеристики английского провербиального кода. Автореф.дисс. …канд. филол. наук, Самара, 2009, 22 с.

(11). Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. Тошкент, 1969, 80 бет.

Madazimova Mavjudaxon Muminovna (O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi)

NEMISCHA REKLAMA MATNLARIDA SIFAT QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Bu maqolada reklama matnlarida sifatlardan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari to‘g‘risida so‘z boradi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishining bizga beradigan umumiy g‘oyasi shundan iboratki, reklama hozirgi hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib, sifatlarning qaysi shakllaridan foydalansa, qanday natijaga erisha olish mumkinligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *reklama, emotsional-ekspressiv, troplar, idiomalar, frazeologik oborotlar, mahsulot, obraz, baho, matn.*

Мадазимова Мавжудахон Муминовна (соискатель Узбекского государственного университета мировых языков)

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В НЕМЕЦКИХ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В статье речь идет о специфических аспектах использования прилагательных в рекламных текстах. Общая идея, которую дает нам это научное исследование, заключается в том, что реклама является неотъемлемой частью нашей текущей жизни и рассматривается, какого результата можно достичь, если использовать те или иные формы прилагательных.*

Ключевые слова: *реклама, эмоционально-экспрессивный, тропы, идиомы, фразеологические обороты, продукт, образ, оценка, текст.*

Madazimova Mavjudakhon Muminovna (Researcher at the University of world languages)

FEATURES OF THE USE OF ADJECTIVES IN GERMAN ADVERTISING TEXTS

Annotation. *This article will focus on the specific aspects of the use of adjectives in advertising texts. The general idea that this research study gives us is that advertising is an integral part of our current life and considers what kind of result can be achieved if certain qualities are used.*